



Akramjonova Gulandom Ibrohimjon qizi

ADPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik fanining o‘rganish obyekti va predmetini belgilashda tilshunoslarning qarashlari tahlil etildi. Til va mantiqning o’zaro munosabati haqida fikr yurilidi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy fanlar, lingvistika, mantiqiy tilshunoslik, til mantig’i, til va jamiyat, til va tafakkur, modallik, ziddiyat

Jamiyatda, uning taraqqiyotida ijtimoiy fanlarning orni beqiyos. Ular odamning aqliy kamolotga erishuviga katta ta’sir kuchiga ega ekanligini til va u haqdagi fan tilshunoslikka nisbatan ham qo’llash mumkin.

Lingvistlar qarashlarida mantiq va lingvistika mavzusi masalasiga ikki xil yondashuv bor:

1. Til va tafakkurning o’zaro munosabati dolzarb muammo bo’lib qolishi, shuningdek, uning markazida til va tafakkurning uzaro bogliqlilik masalasi asosiy orinni egallaydi. Bu borada ikki xil oqim mavjud bo’lib, birinchisida til va tafakkur muammosi «gapning tarkibiy qismini anglatuvchi “hukm”, “soroq”, “buyruq”, “gap bolaklari” va “hukm komponentlari”, “son kategoriyasi”, “modallik va mayl” kabi maxsus atamalar yordamida yoritiladi, ikkinchi oqimda bu muammo turli korinishdagi alohida jumladan, gapning «ichki» va «tashqi strukturasi» kabi atamalarda oz aksini topadi. Ayrim asarlarda esa «til» yoki «nutq tafakkuri» atamalari deb qarash taklif qilinmoqda.

2. Til va mantiqning o’zaro munosabati yangidan fan sifatida dolzarb muammoga aylandi. Bundan ko’rinadiki, til va tafakkur shakllari va ularning mazmuni haqidagi masalalar asosiy o’rinni egallaydi. Ushbu muammolar doirasida mantiq va tilshunoslik uchun qator umumiy kategoriylar: modallik, ziddiyat, til va nutq, zaruriyat, ehtimollik, tasnif tushunchasi, funksiya, implikatsiya, konyunksiya, kvantor va boshqa amallar (operatsiyalar) aniqlandi.



Mantiq va tilning hozirgi aloqalari ushbu ikki fandagi nazariy tushunchalarining mos tushishi bir-biridan farqlanadigan tillar taraqqiyotida muhim omil bolib xizmat qilayotganini ko'rsatmoqda.

Bizning nazarimizda, lingvistika bilan tafakkurning uzviy aloqasi til mohiyatini aniqlab, uni imkon boricha mantiqda yaqinlashtiradi. Albatta, bunda har bir tilning xususiyati hisobga olinishi kerak.

Mantiq ilmida “predmetlarni, ularning hossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar deskreptiv atamalar”⁴¹ deyiladi. Deskreptiv atamalar predmetlar nomlari yoki termalar (predmetlarni, predmetlar to’plamini aks ettiruvchi ifodalar) va predikatorlar (predmetlarning hossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar)ga bo’linadi. Mantiqdagi aynan mana shu xulosalar so’zlarni turkumlarga ajratishga asos bo’ladi. Arastu inson nutqini harf, bo’gin, bog’lovchi, ism, fe’l, a’zo, kelishik va gaplar kabi nutq bo’laklariga bo’lganida bog’lovchi, ism, fe’l deya turkumlarni ko’rsatadi. Mantiqshunoslikdagi hozirgi kun tushunchasi bilan deskreptiv atamalar, ya’ni predmetlar nomlari yoki termalar (predmetlarni, predmetlar to’plamini aks ettiruvchi ifodalar)ni ismlar, predikatorlar (predmetlarning hossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar)ni ravishlar va fe’l so’z turkumlari deb aytish mumkin bo’ladi.

Tilshunoslikda ot so’z turkumiga kiruvchi birliklar aniq va mavhum otlarga bo’linadi. Bunday bo’linish mantiq xulosalariga yaqin bo’lib, mantiqshunoslikdagi “predmetlarning nomlari ayrim so’zlar va so’z birikmalari bo’lib, ular moddiy (planeta, gul) va ideal (tafakkur, sezgi) predmetlarni ifodalaydi”⁴², degan fikrga asoslanadi. Predmet nomi belgidan iborat bo’lganligi uchun o’z mazmuni va ma’nosiga ega. Nomning mazmuni predmetni ifoda qiladi va mantiqda denotat deb ataladi. Nomning ma’nosini esa predmetning muhim, umumiy belgilarini ifoda qiladi va konsept deb ataladi⁴³. Masalan, “Aristotel”, “mantiq faninig asoschisi”, “”Topika” asarining muallifi” kabi ifodalarning mazmuni bir xil, ya’ni bitta predmetni ifoda qiladi, ma’nosini esa turli xil, ya’ni fikr

⁴¹ M.Sharipov, D.Fayzixo’jayeva. Mantiq. T.: ”G’afur G’ulom”, 2004-yil. 50-bet.

⁴² M.Sharipov, D.Fayzixo’jayeva. Mantiq. T.: ”G’afur G’ulom”, 2004-yil. 51-bet.

⁴³ M.Sharipov, D.Fayzixo’jayeva. Mantiq. T.: ”G’afur G’ulom”, 2004-yil. 51-bet.



obyektining har xil belgilarini qayd etadi. Kognitiv tilshunoslikda konsept asosiy figura sifatida qaraladi. Buni quyidagi holatlar bilan tasdiqlash mumkin:

- 1) kognitiv sohada inson ongingin mental resurs birliklarini, inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi informatsiya strukturasini ifodalovchi mental birlik sifatida konsept qaraladi;
- 2) kognitiv tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri «kognitiv semantika» konseptning tabiatni va strukturasini o'rganadi;
kognitiv tilshunoslikda, asosan, konsept va so'z ma'nolari orasidagi munosabat tahlil etiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili grammatikasi. "Fan", Toshkent. 1975. 1-tom.
2. G'ulomov A. Fe'l. Toshkent. Fan. 1984.
3. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. "Ho'zirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent. "O'qituvchi", 1980.
4. Sharipov M., Fayzixo'jayeva D. Mantiq. T.: "G'afur G'ulom", 2004-yil.